


O'zbekiston -Xitoy qo'shma ilmiy loyihasi

Ayni kunlarda Fanlar akademiyasi Ion plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilayotgan O'zbekiston -Xitoy qo'shma loyihasi doirasida loyiha rahbari V.Quvondiqov hamda kichik ilmiy xodim D.O'razkulovalar Nanjing Tech Universiteti qoshidagi School of Flexible Electronics (Future Technologies) ilmiy mакtabida hamkorlikda qo'shma tadqiqotlar olib borishmoqda.





Xizmat safari davomida loyihada qo'yilgan ilmiy vazifalar yuzasidan Xitoy tomonidagi hamkor ilmiy markazlar Nanjing Tech, Changzhou va Nanjing Forestry universitetlari olimlari (Sunsun Li, Wenchao Zhao, Chao Ma, Lingling Zhu, Yuming Wang, Zhen Wang) bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Olib borilayotgan tadqiqotlarda o'z o'zidan agregatsiyalanuvchi funksional monoqatlam materialini yarimshaffof organik quyosh elementlarida qo'llash orqali ularning termik barqarorligini oshirish bo'yicha tajribalar o'tkazilmoqda. Ushbu loyihada aqlli issiqxonalarda qo'llash uchun yangi sintez qilingan materiallar asosida termik stressga chidamli yarimshaffof organik fotovoltaik elementlarning laborator namunalarini ishlab chiqish maqsad qilingan bo'lib, bu kabi yarim shaffof organik fotovoltaik elementlarning optik yorug'lik o'tkazuvchanligining o'simliklarda kechayotgan fotosintez jarayonlariga ta'sir qilish mexanizmlarini tadqiq qilish rejalashtirilgan.